

Bo'rikalla qovun navini o'g'it berish meyorini xosildorlikka ta'siri.

Satipov Gaipnazar Matvapayevich

Qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor. Biologiya kafedrası.

Yusupova Azada Kadambayevna

Tayanch doktorant; Abu rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti. Biologiya kafedrası.

Annatsiya: Maqolada Xorazm tuproq-iqlim sharoitida yetishtirilayotgan ertapishar qovun navlaridan xisoblangan Bo'rikalla qovun navini o'g'it berish meyorlarini turli xil variantlarda qo'llash orqali xosildorlik ko'rsatkichlarini o'zgarishi keltirilgan bo'lib, to'g'ri va optimal oziqlantirishga erishish orqali o'simliklarning generativ rivojlanishini jadallashtirish xamda ertaroq hosil olish imkoniyatini amalga oshirish mumkinligini kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zi: qovun, ekish muddati, o'suv davri, agrotexnologiya, hosildorlik, anemiya, texnologiya, eksport, xarorat.

Аннотация: В статье представлены данные об изменении урожайности раннеспелого сорта дыни Борикалла, выращиваемого в почвенно-климатических условиях Хорезма, при применении различных норм внесения удобрений. Также освещена возможность ускорения генеративного развития растений и получения более ранних урожаев за счет обеспечения правильного и оптимального питания.

Ключевое слово: дыня, срок посадки, вегетационный период, агротехника, урожайность, анемия, технология, экспорт, температура.

Annotation: The article presents changes in the yield indicators of the Borikalla melon variety, an early-ripening melon variety grown in the soil-climatic conditions of Khorezm, by applying different fertilizer application standards. It also highlights the possibility of accelerating the generative development of plants and achieving earlier harvests by achieving proper and optimal nutrition.

Key word: melon, planting date, growing season, agrotechnology, yield, anemia, technology, export, temperature.

Qovun yetishtirishning nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda, balki qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida, eksport salohiyatini oshirishda va aholi daromadlarini ko'tarishd muhim rol o'ynaydi.

Qishloq xo'jaligi nuqtai nazaridan, qovun yetishtirish yuqori daromad keltiruvchi sohalardan biridir. Ayniqsa, ertapishar navlarning bozorga erta kirib borishi fermerlar uchun katta iqtisodiy foyda keltiradi[1,4].

Qovun inson salomatligi uchun juda foydali bo'lib, tarkibida ko'p miqdorda vitaminlar, minerallar hamda antioksidantlar mavjud. Anemiya, jigar kasalliklari, ateroskleroz va yurak-qon tomir kasalliklarida tavsiya etilishi uning dorivor ahamiyatini ko'rsatadi. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida qovun mevasi tarkibidagi likopenning ultrabinafsha nurlanishiga qarshi kurashishdagi rolini ta'kidlagan [7].

Jahonda qovun yetishtirishning turli tizimlari va texnologiyalari mavjud bo'lib, ular mintaqaviy tuproq-iqlim sharoitlari va bozor talablariga moslashgan. Bular quyidagi tizim va texnologiyalardan iborat:

Yevropa, Shimoliy Amerika va Yaponiyada yuqori qiymatli qovun navlarini yetishtirishda issiqxonalarda keng qo'llaniladi. Bu, ayniqsa, sovuq iqlim sharoitida yoki erta yetishtirish uchun

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-10

muhim hisoblanadi. Issiqxona sharoitida qovun hosildorligini oshirishda harorat, yorug'lik va namlikni nazorat qilishning ahamiyatini o'rganishgan [5].

Dunyoda 14 ta mamlakat umumiy qovun hosilining 85% ini yetishtirib chiqaradi, ular quyidagilar: Xitoy, Turkiya, Eron, Hindiston, Qozog'iston, AQSH, O'zbekiston, Misr, Ispaniya, Gvatemala, Italiya, Meksika, Braziliya va Marokash. 2018 yilda jahon miqyosida qovun eksporti 2,4 million tonnaga yetdi va umumiy qiymati 1,8 milliard dollarni tashkil etdi. Eng katta qovun eksport qiluvchi mamlakatlar - Ispaniya, Gvatemala, Braziliya, Gonduras, AQSH, Niderlandiya, Meksika va Kosta-Rika bo'lib, ularning jahon bozoridagi ulushi taxminan 80%ni tashkil etadi [3].

Qovun eksport qiluvchi yetakchi davlatlar qatoriga kirish uchun avvalo Respublikamizda qovun yetishtirishda yuqori innovatsion texnologiyalardan foydalanish muxim sanaladi. Intensiv texnologiyalarini qo'llashda qovun navlarining biologiyasi bilish muxim sanaladi. Qovun urug'lari tuproq harorati 14-15°C bo'lganda unishni boshlaydi va 5-7 kun ichida o'sishni boshlaydi. Eng maqbul issiqlik +25...+30°C. Xarorat +12...+15°C xaroratga qadar pasayganda o'simlikning o'sishi sekinlashib, gullari to'kiladi, -1°C da esa o'simlik nobud bo'ladi. Yuqori (+40°C dan yuqori) xarorat o'simliklarning o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [2,6].

Bo'rikalla (Obinovvot): "Dasturxon ko'rki" va ertagi mo'l-ko'llikning elchisi. Dehqonlar orasida "Obinovvot" nomi bilan ham tanilgan Bo'rikalla navi, ertapishar nav. O'rtacha kattalikda. Urug'i tuproqqa qadalgan kundan to oltinrang mevalar dasturxonimizni bezaguncha o'rtacha 75-85 kun vaqt talab etadi. O'rtacha kattalikda (3-4 kg), faqat dum tomoni to'rlaydi, ba'zan to'rsiz bo'ladi. Tusi to'q sariq, Po'stining qalinligi o'rtacha, eti qalin (5-6,5 sm), oq, yumshoq, sershira, shirin, tarkibida 7,4-9,3% qand, shuningdek, 4,9-5,6% saharoza bor. Quruq moddasi 9,2%. Urug'xonasi o'rtacha, urug'i yirik, sariq. Urug'i unib chiqqandan keyin 70-80 kunda pishadi. Hosildorligi 180-200 s/ga. Uzoq muddat saqlashga, uzoq joylarga yuborishga yaroqsiz. Farg'ona vodiysida, Samarqand, Buxoro, Surxondaryo viloyatlarida yetishtiriladi. Yuqori harorat va suv tanqisligiga nisbatan ma'lum darajada chidamliligi uning qimmatini oshiradi.

1-jadval

Dala tajriba tizimi

№	Navlar	Ekish sxemasi (pushtalar orasi x o'simlik orasi)	Qaytariqlar soni	Tup soni ming/ga
1-variant: NPK (200:120:90 kg/ga)				
1.1	Bo'rikalla	150 x 50 sm	3	13,3
1.2	Bo'rikalla	150 x 70 sm	3	9,5
2-variant: NPK (250:140:90 kg/ga)				
2.1	Bo'rikalla	150 x 50 sm	3	13,3
2.2	Bo'rikalla	150 x 70 sm	3	9,5

Qovun urug'lari aprel oyining birinchi o'n kunligida ekildi. Agrotexnik tadbirlar - dalani ekishga tayyorlash, sug'orish, kultivatsiya, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash - mintaqada qabul qilingan agrotexnik tavsiyalarga muvofiq amalga oshirildi(1-jadval).

Tadqiqot doirasida tanlab olingan "Bo'rikalla (Obinovvot)" navlarining 2024-2025 yillar vegetatsiya davridagi asosiy fenologik fazalari va ularning davomiyligi ma'lumotlarda berilgan. Kuzatuvlar har bir tajriba variantida tizimli ravishda olib borildi.

Turli qovun navlarining hosildorlik ko'rsatkichlari, jumladan ko'chat soni, bir tupdagi meva soni, bitta mevaning o'rtacha og'irligi va gektar hisobidagi umumiy hosildorlik ko'rsatkichlariga NPK o'g'it me'yorlari va ekish sxemasining ta'sirini tahlil qilinganda tajriba natijalariga ko'ra, "Bo'rikalla" navining hosildorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilishda qo'llanilgan NPK o'g'it me'yorlari va ekish sxemasining o'rni muhim ahamiyatga ega. Tajriba natijalariga ko'ra, ko'chat soni 150x50 sm ekish sxemasida 13333 tup/gani, 150x70 sm ekish sxemasida esa 9524 tup/gani tashkil etgan. N1 (200:120:90 kg/ga) o'g'it me'yor qo'llanilganda 150x50 sm ekish sxemasida bir tupdagi meva soni 0,85 donani, bitta mevaning o'rtacha og'irligi 2,5 kgni, umumiy hosildorlik esa 28,3 t/gani tashkil etgan. 150x70 sm ekish sxemasida bir tupdagi meva soni 1,0 donani, meva og'irligi 2,8 kgni, hosildorlik esa 26,7 t/gani tashkil etgan. Ikkinchi variant NPK o'g'it me'yor N2 (250:140:90 kg/ga) ga oshirilganda, "Bo'rikalla" navida yuqori hosildorlik kuzatilgan. Xususan, 150x50 sm ekish sxemasida bir tupdagi meva soni 0,95 dona, bitta mevaning o'rtacha og'irligi 2,6 kg bo'lib, umumiy hosildorlik 33,3 t/gani tashkil etgan. 150x70 sm sxemasida esa bir tupdagi meva soni 1,15 dona, meva og'irligi 2,9 kg, hosildorlik 31,6 t/gani tashkil etgan. Bu shuni anglatadiki, yuqori oziqlantirish meva soni va og'irligini oshirish orqali umumiy hosildorlikni yaxshilagan. "Bo'rikalla" navida ham NPK o'g'it me'yorining oshirilishi (N2) hosildorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Eng yuqori hosildorlik (33,3 t/ga) 150x50 sm ekish sxemasida, N2 o'g'it me'yor qo'llanilganda kuzatilgan. Bu natijalar, oziqlantirishning optimallashtirilishi "Bo'rikalla" navining hosildorlik salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi(2-jadval).

2-jadval

Hosildorlik ko'rsatkichlari.

Nav nomi	O'g'it me'yor NPK (kg/ga)	Ekish sxemasi (sm)	Bir tupdagi meva soni (dona)	Bitta mevaning o'rtacha og'irligi (kg)	Umumiy hosildorlik (t/ga)
Bo'rikalla	N1 (200:120:90)	150x50	0.85	2.5	28.3
		150x70	1	2.8	26.7
	N2 (250:140:90)	150x50	0.95	2.6	33.3
		150x70	1.15	2.9	31.6

Fenologik davrlar (gullash, meva tugish, pishish davri) bo'yicha qiyosiy tahlili, hosildorlik bilan bog'liqligi, gullash va meva tugish davrlarining qisqarishi taxlil qilinganda, barcha navlarda N2 o'g'it me'yorining qo'llanilishi otalik va onalik gullarning ochilish davrini hamda meva tugish davrini nisbatan qisqartirgan. Bu, optimal oziqlantirish o'simliklarning generativ rivojlanishini jadallashtirishini, natijada ertaroq hosil olish imkoniyatini berishini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaev Z. Q., Nasimov S. S. (2019). Poliz ekinlari agrotexnologiyasi. Toshkent: "Navro'z" nashriyoti.
2. Mavlyanova R., Rustamov A., Xakimov R., Xakimov A., Turdieva M., Padulosi S. (2018). "O'zbekiston qovunlari". Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti. B.1-216.
3. Qo'chqor D., Bahodir X., Shokir I., Xusniddin T.L. (2023). Cultivation of melon varieties and study of their agrobiological characteristics. Universum: texnicheskie nauki, (8-4 (113)), 19-22.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-10

4. Chaithra, C., Sood, M., Indires, K. M., Anjanappa, M., Kattagoudar, J., & Rajeshwari, R. (2022). Studies on Heterosis and its Extent for Horticultural Traits in Long Melon (*Cucumis melo* var. *flexuosus* (L.) Naudin). *International Journal of Bio-resource and Stress Management*, 13(9), 987-994.
5. Jones, R. K., & Pitelka, L. F. (2019). *Greenhouse Production of Horticultural Crops*. CRC Press.
6. Rouse, S. L., & Andersen, S. R. (2002). "Seed germination and growth conditions of melon," *Journal of Agricultural Science*, 138(2), 165-172.
7. Smith, J. A., et al. (2021). Lycopene content in melon fruit and its role in human health. *Journal of Agricultural and Food Chemistry*, 69, pp-pp.

